

**SAMARQAND VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH HUDUDIY MARKAZI**

**MAKTABGACHA, BOSHLANG'ICH VA MAXSUS TA'LIM  
METODIKALARI KAFEDRASI**

**ONA TILI FANIDAN LUG'AT VA  
TEKSHIRISH DIKTANTLARI**

*(umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari  
uchun uslubiy ko'rsatma)*

**Samarqand – 2019**

Rabbanayeva Dildora. Ona tili fanidan lug‘at va tekshirish diktantlari.  
Umumta‘lim maktablarining boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilari uchun uslubiy  
ko‘rsatma. – Samarqand VXTXQTMOHM, 2019-yil. 24 bet.

Taqrizchilar: X.Rabbanaqulov – SamDU, Boshlang‘ich ta‘lim  
metodikasi kafedrası dotsenti  
D.Jo‘rayeva – Samarqand XTXQTMOHM  
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim  
metodikalari kafedrası o‘qituvchisi

Ushbu ko‘rsatma umumta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinf  
o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, boshlang‘ich sinf ona tili fanidan lug‘at  
va tekshirish diktantlari va ulardan ta‘lim jarayonida foydalanish yuzasidan uslubiy  
tavsiyalar berilgan.

Uslubiy ko‘rsatma Samarqand viloyat xalq ta‘limi xodimlarini qayta  
tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi Ilmiy kengashining 2019-yil  
\_ iyun \_\_\_- sonli yig‘ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

## **O‘quvchilarda yozuvga oid kompetensiyalarni shakllantirish**

Ona tili darslarining samaradorligini oshirish, unda o‘quvchilarni faollashtiradigan, mantiqiy fikrlashga undaydigan metod va usullarni, mashqlar tizimini ishlab chiqish, matnni lingvistik tahlil ustida ishlash dolzarb masalalardan biridir.

Boshlang‘ich ta’lim ona tili fani dasturning “Grammatika, imlo va nutq o‘stirish” bo‘limi har bir sinfda quyidagicha qismlarni o‘z ichiga oladi: “Tovushlar va harflar”, “So‘z”, “Gap”, “Bog‘lanishli nutq”. Asosiy mavzular bosqichli izchillik tamoyiliga asoslanib, har to‘rt sinfda o‘rganiladi. Har bir sinfda yetakchi mavzular ajratiladi. 1–2-sinfda fonetika va grafikaga oid mavzularni o‘rganishga katta o‘rin beriladi, 3–4-sinfda sintaksis, morfologiya haqidagi bilim va ko‘nikmalarni egallaydilar.

Dasturga ko‘ra, o‘quvchilarda so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lish ko‘nikmasini shakllantirish vazifasi talab etiladi. Bo‘g‘in murakkab tushuncha bo‘lgani uchun boshlang‘ich sinflarda uning qoidasi berilmaydi. O‘quvchilar so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lishda so‘zda nechta unli bo‘lsa, shuncha bo‘g‘in bo‘ladi, degan tushunchaga asoslanadilar. Bu tushunchani ular savod o‘rgatish davridayoq hosil qiladilar. Bolalar yozilgan so‘zdan dastlab unli harfni topadilar, keyin so‘zda nechta unli bo‘lsa, uni shuncha qism (bo‘g‘in)ga bo‘ladilar. Bog‘in haqidagi bilim so‘zning bir yo‘lga sig‘magan qismini bo‘g‘inlab to‘g‘ri ko‘chirish ko‘nikmasini shakllantirishga asos bo‘ladi.

So‘z yasalishini o‘rganishga tayyorgarlik bosqichining vazifasi – o‘quvchilarni bir xil o‘zakli so‘zlarning ma’no va tuzilishiga ko‘ra bog‘lanishini tushunishga tayyorlash.

“So‘z” bo‘limida o‘quvchilar so‘zning leksik ma’nolarini kuzatadilar, so‘zga so‘roq berishni o‘rganadilar. O‘quvchilarda so‘z turkumlarini bilish

ko'nikmasi ularning belgilari yig'indisini egallashlari asosida shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan umumiy o'rta ta'limining davlat ta'lim standarti bo'yicha o'quvchilarda ona tili fanidan yozuvga oid quyidagi kompetensiyalar shakllantirishi lozim.

**Nutqiy kompetensiya elementlari:** (*tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish*) mavzu doirasida o'qituvchi nutqini, sodda audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarini tinglab tushuna oladi; rasmlar asosida va o'qib eshittirilgan matn yuzasidan o'qituvchi yordamida suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida o'zlashtirgan yangi so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi; alifboni yozma shaklda yoza oladi.

**Lingvistik kompetensiya elementlari** o'zbek tilida nutq tovushlarini to'g'ri qo'llay oladi, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila oladi, mavzuga oid so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ona tili ta'limi bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar quyidagicha:

1-sinf. 3-4 ta so'zli gapni eshitib yoza olishi, 15-20 ta so'zgacha bo'lgan diktantni yoza olishi lozim.

2-sinf. 4 ta gapdan iborat ijodiy matn yarata olishi, rasmlar asosida qisqa matn tuza olishi, xatboshiga, imlo va husnixat qoidalariga amal qilshi, 30-40 ta so'zgacha bo'lgan diktantni yoza olishi lozim.

3-sinf. 5-6 ta gapdan iborat ijodiy matn yarata olishi, 50-60 ta so'zgacha bo'lgan diktantni yoza olishi lozim.

4-sinf. 5-6 gapdan iborat xabar, tasvir, muhokama shakllarini qo'llab matn yarata olishi, 65-70 ta so'zgacha bo'lgan diktantni yoza olishi lozim.

## **O‘quvchilarni to‘g‘ri va chiroyli yozuvga o‘rgatishda diktantlardan foydalanish**

Diktant o‘quvchining savodxonligini tekshirishni va olingan bilimlarni mustahkamlash maqsadida kundalik hamda ko‘pgina oraliq nazorat shaklida o‘tkaziladi.

Diktant o‘tkazishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini, bilim darajalarini hisobga olish, soddadan murakkabga borish muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, o‘quvchilarni o‘z-o‘zini tekshirishga o‘rgatish kerak.

O‘quvchi diktant yozganda so‘zning harfiy ifodasini ko‘rmay, eshitish orqali tovushlar majmuasini tasavvur etadi, tovushlarni harflar bilan almashtirib yozadi.

Bunda ruhiy va jismoniy jarayonlarning birgalikda mustahkamlanib borishga imkon beradi. Shuning uchun ham diktant imlo o‘rgatishga o‘z tabiatiga ko‘ra to‘la ahamiyatga egadir.

Diktant maqsadga ko‘ra ikki turga bo‘linadi.

**I.Ta`limiy diktant.** Bu turda o‘rganilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida yozuv darsining ma`lum bir qismida mashq sifatida o‘tkaziladi. Unga alohida soat ajratilmaydi.

Boshlang‘ich sinflarda ta`limiy diktantning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin.

1. Lug‘at diktant
2. Yoddan yozuv diktanti
3. Saylanma diktant
4. Izohli diktant
5. Ko‘rsatish diktanti
6. Ijodiy diktant
7. Ta’kidiy diktant
8. Erkin diktant

## **II. Tekshirish diktant**

Tekshirish diktanti dasturni biror bo'limini o'rganilib, ta'limiy maqsadlar bilan mustahkamlangach, ular o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganini sinash maqsadida o'tkaziladi.

Tekshirish diktanti uchun sintaktik tuzilishi jihatidan shu sinf o'quvchilari saviyasiga mos, o'rganilgan imlo qoidalari asosida yoziladigan so'zlar va tinish belgilari ko'proq qo'llanilgan matn tanlanadi.

Tekshirish diktanti uchun gaplardagi so'zlar soniga e'tibor berish lozim.

Diktandagi so'zlar soni keyingi o'quv yili boshida o'tkaziladigan diktandagi so'zlar soniga barobar keladi va asta-sekin ortib boradi.

### **Diktantda quyidagi xatolar hisobga olinadi:**

1. So'zlarda bo'g'in yoki so'z tushib qoldirilsa.
2. Bo'g'in yoki harf tushirilib qoldirilsa.
3. So'zning ma'nosi boshqa so'z bilan almashtirib yozilsa.
4. Harf shakllarini buzib yozsa.
5. Xato yozilgan harf yoki so'z bo'yab tuzatilsa.

### **Diktantda quyidagi xatolar hisobga olinmaydi:**

1. O'quvchilarga o'rgatilmagan qoidalar yuzasidan qilingan xatolar bo'lsa.
2. Gap oxirida nuqta qo'yilmagan bo'lsa-yu, keyin gapni bosh harf bilan yozsa.
3. Gap ma'nosini buzmaganda boshqa so'z bilan almashtirilib yozilsa.
4. Biror harfni takror yozsa.
5. Bo'g'in ko'chirishda so'zni bir qismini yozsa-yu, ikkinchi qismiga yozishni unutgan bo'lsa.
6. Gapdagi so'zlarni takror yozgan bo'lsa.

### **Lugʻat diktanti.**

Lugʻat diktanti oʻrganilgan imlo qoidalarini oʻquvchilar tomonidan qanchalik oʻzlashtirilganini sinash, lugʻatini boyitish maqsadida oʻtkazish mumkin.

Oʻqituvchilar imlo qoidasi yozilgan soʻzlar, soʻz birikmalari yoki turli rasmlardan foydalanish mumkin.

Oʻqituvchi tanlagan narsa yoki rasmlarni tartib bilan koʻrsatadi. Oʻquvchilar rasmda koʻrsatilgan narsa nomini yozib belgilab qoʻyadilar.

Oʻqituvchilar yozganlarini imlo lugʻatidan solishtirib, yoki qoʻyilgan xatolarni oʻzlarini tekshiradi.

### **Lugʻat diktanti yozish uchun:**

2-sinfda 8 ta soʻz, 3-sinfda 10-12 ta soʻz, 4-sinfda 12-15 ta soʻz boʻlishi kerak.

Ushbu tavsiyanimada 1-4 sinflarda oʻquvchilar bilimini tekshirish uchun yozdirish mumkin boʻlgan, lugʻat diktant uchun soʻzlar va tekshirish diktanti uchun matnlardan namunalar keltiriladi.

## **Boshlang'ich sinflar uchun lug'at diktant namunalari**

### **1-sinf**

#### **Lug'at diktantlar.**

1. Anjir, barg, davo, anor, behi.  
(5 so'z)
2. Ayiq, bodom, burgut, echki, olma.  
(5 so'z)
3. Bilim, kitob, ekin, havo, mehnat.  
(5 so'z)
4. Oftob, ozod, hisob, oltin, odob, dars.  
(6 so'z)
5. Koptok, rubob, kitob, do'st, bilim, ilm.  
(6 so'z)
6. Ra'no, va'da, she'r, sher, e'lon, san'at.  
(6 so'z)
7. Yong'oq, tong, shaftoli, chang, olcha, shotut.  
(6 so'z)
8. Qish, qor, chana, yaxmalak, archa, daraxt.  
(6 so'z)
9. Yo'lbars, maymun, timsoh, arslon, tulki, mushuk.  
(6 so'z)
10. Arra, sakkiz, kakku, katta, musaffo, zarra.  
(6 so'z)
11. Qaldirg'och, kakku, laylak, musicha, chumchuq, qarg'a.  
(6 so'z)
12. Rahbar, o'quvchi, o'qituvchi, sinfdosh, maktabdosh, mahalladosh.  
(6 so'z)



## 2 - sinf

### Lugʻat diktantlar.

1. Paxta, istiqlol, mustaqil, anor, behi, kuz.  
(6 soʻz)
2. Mushuk, echki, hayvon, toychoq, Aziza, ziyrak.  
(6 soʻz)
3. Davlat, Vatan, yongʻoq, daraxt, gulzor, Rasul.  
(6 soʻz)
4. Kartoshka, piyoz, turp, lavlagi, sabzi, karam, sabzavot.  
(7 soʻz)
5. Kitob, daftar, qalam, maktab, oftob, odob, bilim.  
(7 soʻz)
6. Mehmon, koptok, ozod, tovus, tovuq, tuxum, qayiq.  
(7 soʻz)
7. Vaʻda, eʻlon, Raʻno, maʻrifat, aʻlo, sheʻr, maʻno, Talʻat.  
(8 soʻz)
8. Olapar, Momiq, Qoplon, Toshkent, Oqdaryo, Yrgut, Jarqishloq, Moskva.  
(8 soʻz)
9. Sakson, ikki, gulla, bordi, qizil, sariq, Nodira, kitob.  
(8 soʻz)
10. Choʻpon, oʻqituvchi, quruvchi, shifokor, donishmand, mehribon, aqlli, jahldor.  
(8 soʻz)
11. Pishloq, xalqaro, tabassum, vazifa, loqayd, beparvo, belanchak, belkurak.  
(8 soʻz)
12. Nonushta, yoqimtoy, shippak, mehmon, varrak, kechqurun, xursand, idish.  
(8 soʻz)

### 3- sinf

#### Lugʻat diktantlar

1. Doʻst, farzand, oʻlka, maydon, Samarqand, shabada, avlod, ozod.  
(8 soʻz)
2. Yalpiz, qizgʻaldoq, oʻsimlik, uzum, bodring, oshqavoq, qoʻziqorin, baqlajon.  
(8 soʻz)
3. Qir-adir, hosil, yaylov, bugʻdoy, paxtakor, yogʻingarchilik, dehqon, hosildor.  
(9 soʻz)
4. Keng, goʻzal, yoqimli, koʻtaradi, uxladi, kelmoqchi, shifokor, choʻpon, allalaydi.  
(9 soʻz)
5. Talʻat, Raʻno, eʻlon, tashabbus, vaʻda, sher, sheʻriyat, velosiped, varrak, fasl.  
(10 soʻz)
6. Keng, bodring, shaxmat, chiroyli, singil, rang, chang, barcha, Toshkent, tomosha.  
(10 soʻz)
7. Shabada, yantoq, insof, handalak, madhiya, payvand, mavsum, mehribon, gramm, baland.  
(10 soʻz)
8. Koʻrkam, oʻktam, koʻklam, quloq, qoloq, gʻazab, chaqqon, baliq, sovuq, beozor, oppoq, foydali.  
(12 soʻz)
9. Buxoro, Urganch, uygʻondi, gulladi, zargʻaldoq, kuzatdik, oppoq, nordon, sakson, ming, hasharot, yostiq.  
(12 soʻz)
10. Mustaqillik, istiqlol, mehnatsevar, manzara, sumalak, farzand, adolat, qimmat, asosiy, paxtakor, yoqimli, shabada.  
(12 soʻz)
11. Bahor, mart, aprel, “Navroʻz” bayrami, minnatdor, pahlavon, bahodir, tasavvur, taalluqli, tasanno, barakallo.  
(12 soʻz)

#### 4 – sinf. Lug‘at diktantlar

1. Tabiat, anhor, baland, diktant, dorixona, jonivor, hamroh, madhiya, vagon, varrak, ziyrak, rahmdil.

(12 so‘z)

2. Xabar, shamol, shaxmat, rassom, yorug‘, farzand, tarjimon, jadval, ijozat, cho‘qqi, hassa, jahon.

(12 so‘z)

3. Hosildor, tartibli, maqsad, haykal, kitobxon, do‘st, chorvador, bog‘bon, dasturxon, giyoh, hammom, pahlavon.

(12 so‘z)

4. Uchuvchi, kitobxon, mashhur, qadimiy, navqiron, Buxoro, temiryo‘l, sayohatchi, yodgorlik, mahalla, shahar, quruvchi, sog‘inch.

(13 so‘z)

5. Yaxmalak, toychoq, shifokor, choynak, saraton, sabzavot, binafsha, qaldirg‘och, kuyladi, allaladi, mittigina, horg‘in, chamanzor.

(13 so‘z)

6. Bedana, xo‘roz, o‘rdak, tovuq, tovus, turna, chumchuq, qarg‘a, baliq, baqa, maymun, yo‘lbars, bo‘ri, tulki.

(14 so‘z)

7. Asr, qasr, aql, qadr, sharf, daraxt, mard, izzat, mehr, harf, katta, sa‘va, ma‘no, da‘vo.

(14 so‘z)

8. Taassurot, taalluqli, ma‘rifat, shabada, madhiya, manfaat, dastlab, daromad, dorixona, mehribon, mashaqqat, qahramon, hovuz, dehqon.

(14 so‘z)

9. Palapon, payvand, qumursqa, xiyobon, sayyoh, so‘qmoq, sirk, xavf, ta‘til, yassi, shaxmat, quduq, muqaddas, harbiy, oltinrang.

(15 so‘z)

10. Majnuntol, terak, qayrag‘och, chinor, buta, daraxt, o‘simlik, barg, ildiz, poya, yaproq, ko‘sa, paxta, tut, bug‘doy.

(15 so‘z)

## **Boshlang‘ich sinflar uchun tekshirish diktant namunalari**

### **1-sinf**

#### **Tekshirish diktantlar**

##### **1. Ona**

Onamiz eng katta boyligimiz. Onalar farzand uchun jonini berishga tayyor yagona insondir. Onalarni ardoqlang.

*(15 so‘z)*

##### **2. Paxta**

Paxta – o‘zbek xalqining milliy boyligidir. Paxtadan ip, yog‘, sovun, mato kabi juda kerakli narsalar olinadi.

*(16 so‘z)*

##### **3. Tinchlik**

Tinchlik – katta boylik. Barcha insonlar tinchlikni istashadi. Yashash va o‘qish uchun avvalo tinchlik kerak.

*(15 so‘z)*

##### **4. Bahor**

Fasllar ichida eng yoqimlisi bahor faslidir. Bahorda tabiat uyg‘onadi. Daraxtlar gullaydi, bahor gullari ochiladi. Eng chiroyli bayramlar bo‘ladi.

*(18 so‘z)*

##### **5. Amir Temur**

Bobomiz Amir Temur bobomiz juda ham ko‘p bog‘lar yaratgan. Bog‘larning ichida saroylar, favvoralar, hovuzlar qurdirgan. U yerlarga daraxtlar, gullar ektirgan.

*(20 so‘z)*

## **2-sinf**

### **1. Bog‘**

Mening bobom qishloqda yashaydi. Bobomlarning katta bog‘i bor, Bog‘da mevali daraxtlar ekilgan. Yoz va kuz fasllarida shirin mevalar qiladi.

(20 so‘z)

### **2. Kitob**

Kitob – bilim manbai. Kitobni yaxshi ko‘rgan va ko‘p o‘qigan kishi albatta o‘z maqsadiga erishadi. Chunki kitobda biz bilmagan olam sirlari yashiringan .

(22 so‘z)

### **3. Ta‘tilda**

Yaqinda maktabimizda o‘qish tugaydi. Yozgi ta‘til boshlanadi. O‘rtoqlarim oromgohlarga jo‘naydilar. Men qishloqqa – buvimnikiga boraman. Akam “Geolog” oromgohiga boradi. Hamma yaxshi dam oladi.

(22 so‘z)

### **4. Samarqand**

Samarqand – qadimiy va chiroyli shahar. Samarqandda tarixiy joylar juda ko‘p. Registon maydoni, Bibixonim madrasasi va Shohi Zinda kabi tarixiy yodgorliklar shaharga o‘zgacha fayz kiritadi.

(24 so‘z)

### **5. Qushlar**

Qushlar bizning do‘stimiz. Biz qushlarga ozor bermasligimiz kerak. Chunki qushlar himoyasiz jonivorlardir. Ular daraxtlarni zararli qurt-qumursqalardan tozalaydi. Yoqimli sayrashlari bilan insonga zavq beradi.

(25 so‘z)

## **6. Gulzor**

Maktabimizning katta hovlisi bor. O‘quvchilar u yerni chiroyli gulzor qilishgan. Gullarni o‘quvchilar parvarish qiladilar. Nodira bilan Zamira gullardan doimo xabardor bo‘lib turishadi. Gullar hech qachon qarovsiz qolmaydi.

(28 so‘z)

## **9. Tipratikan**

Men tikanlarim bilan uyimga olma, qo‘ziqorinlarni tashiyman. Ignam bilan yaproqlarni sanchib to‘playman. Uning orasida tinchgina uxlayman. Bo‘rini, ayyor tulkini ignalarim bilan go‘rqitaman. Ignalarim zaharli ilonlarni yengishda yordam beradi

(28 so‘z)

## **7. Dam olish kuni**

Dushanba dam olish kuni bo‘lganligi sababli Olim maktabga bormadi. U singlisi Nasiba bilan hayvonot bog‘iga bordi. Ular hayvonot bog‘ida suvda suzib yurgan filni, qafasda sayrayotgan baliqni, chiroyli tovuslarni ko‘rishdi.

(29 so‘z)

## **8. Kapalak**

Umida gulzor atrofida o‘ynab yurgan edi. Yonidagi gulga kapalak qo‘ndi. Umida kapalakni tutmoqchi bo‘ldi. Kapalak uchib ketdi. Boshqa gulga qo‘ndi. Umida sekin borib kapalakni tutib oldi. U kapalakning chiroyli qanotlarini ohista siladi.

(32 so‘z)

## **9. Anor**

Anor O‘zbekistonda ko‘p uchraydi. Anorning barglari mayda, nashtarsimon bo‘ladi. Shoxlari tikanli bo‘ladi. U iyun-iyul oylarida gullaydi. Mevasi yirik, dumaloq, qizg‘ish yoki oqish bo‘ladi. Ta‘mi shirin, nordon, sersharbat. Anor sovuqqa chidamsiz mevali daraxtdir. Anor sharbati yurakka quvvat beradi.

(38 so‘z)

### 3-sinf

#### 1. Maktab

Maktab – uyimiz kabi muqaddasdir. O‘quvchilarning ko‘p vaqti maktabda o‘tadi. Shunday ekan, maktabni toza va ozoda saqlash kerak.

Bolalar, maktabda odob saqlang. Ustozlaringizni, sinfdoshlaringizni hurmat qiling. Maktab hovlisini, sinfxonalarni iflos bo‘lishiga yo‘l qo‘ymang. Maktab hovlisidagi daraxtlarni, gullarni parvarish qiling. O‘zingizni xulqingiz bilan kichiklarga o‘rnak bo‘ling.

*(45 so‘z)*

#### 2. Samarqand

Samarqand – katta shahar. Shaharda ko‘rkam binolar bor. Ular pishiq g‘ishtdan qurilgan.

Mustaqillik sharofati bilan katta-katta binolar qad ko‘tardi. Shaharning ko‘rkam jamolini ko‘rgan kishi xursand bo‘ladi.

Samarqand tarixiy yodgorliklarga boy shahardir. Ayniqsa Registon maydoni dunyoga juda mashhur. Chet ellardan keladigan sayyohlar Registonni ko‘rmasdan ketishmaydi.

*(45 so‘z)*

#### 3. Salom berish odobi

Assalomu alaykum – sizga sog‘lik, salomatlik, tinchlik tilayman demakdir.

Siz kim kimga salom berish kerakligini bilasizmi? Kim oldin salom berishi lozim?

Ko‘pchilikka yolg‘iz kishi salom beradi. Otliq yoki mashinadagi kishi piyodaga salom berishi kerak. Yurgan kishi o‘tirganga, o‘tirgan kishi, yotgan kishiga salom beradi. O‘zingizdan kattaga salom berishni unutmang!

*(50 so‘z)*

#### **4. Kuz**

Bu yil kuz fasli erta tushdi. Qovun palagi qurimasdan, havoda mezon shamoli uchdi. Kechalari osmonda turnalarning horg'in nolasi eshitilmoqda. Bu yil qish qattiq keladiganga o'xshaydi, teraklar bargini erta to'kdi. Oktabr oyining boshi bo'lishiga qaramasdan havo sovib, tez-tez yomg'ir yog'moqda. Paxtakorlar ham shoshib qolishdi, dalalarda paxtalar chamandek ochilib turibdi.

*(50 so'z)*

#### **5. Chumolilar**

Chumolilarning turi juda ko'p. Ular dalalarda, o'rmonlarda, qirlarda, hovlilarda oila bo'lib yashaydi. Insonlar yashaydigan joylarda asosan sariq, jigarrang, qora chumolilar uchraydi.

Chumolilar juda mehnatkash va foydali hasharotdir. Ular bahor faslining boshlanishidan, kuz faslining so'hggi kunlarigacha mehnat qilib, oziq-ovqat yeg'adi.

Chumolilar mevali bog'larda, dalalarda, paxtazorlarda uchraydigan zararli hasharotlarga qiron keltirib, insonlarga katta yordam beradi.

*(55 so'z)*

#### **6. Registon**

Samarqanddagi Registon ansambli dunyoga mashhur tarixiy yodgorlikdir. Chet ellardan kelgan sayyohlar Registonni ko'rmay ketmaydi.

Registon ansambli uchta salobatli binodan tashkil topgan. Bular: Ulug'bek, Sherdor, Tillakori madrasalaridir.

Ulug'bek madrasasi 1471-yil barpo etilgan. Madrasada diniy ilmdan tashqari, dunyoviy fanlar ham o'qitilgan. Bu yer Mirzo Ulug'bek davrida ilm-fanning markazi bo'lgan. Madrasada Ulug'bekning o'zi ham dars bergan.

*(55 so'z)*



## **7. Ta'til kunlarida**

Yozgi ta'tilda ko'p narsalarni kuzatish mumkin. Quyosh chiqishini, uning zarrin nurlari dastlab qayerlarga tushishini kuzatish juda zavqli bo'ladi. Qaysi qushlar birinchi bo'lib sayrashini tinglash, dalaga birinchi bo'lib kim chiqishini ko'rish uchun juda erta turish kerak.

Inson kuzatganlari asosida tafakkur qiladi. Tafakkur qilish esa yaxshi faoliyat bo'lib, insonning aqlli bo'lishiga yo'rdam beradi. Bolalar, ta'til kunlari kun bo'yi kuzatganlaringizni yozib boring. (59 so'z)

## **8. Paxta**

Paxta milliy bo'yliklarimizdan biridir. Respublikamizning juda ko'p joylarida paxta hosili yetishtiriladi.

O'zbek xalqi qadimdan paxtachilik bilan shug'ullanib kelishgan. Chunki undan hayotimiz uchun zarur bo'lgan yog', ip, sovun, qog'oz, spirt kabi zarur narsalar olinadi.

Hozir paxtadan bir ming ikki yuz xil mahsulot ishlab chiqariladi. Paxta tolasidan yetmish xildan ortiq gazlamalar to'qiladi. G'o'za barglarida o'n yeti xil kislota va vitaminlar mavjud.

(60 so'z)

⋮

## 4-sinf

### 1. Kitob – do‘stimiz

Kitob eng yaxshi maslahatchi va o‘qituvchidir. Kitobda dunyo ilmi mujassam. Kitobsiz bilimli, madaniyatli kishi bo‘lib yetishish mumkin emas.

Bolalar, kitobni seving va asrang. Ko‘p kitob o‘qib, bilimingizni boyiting. Eng yaxshi kitobxon bo‘lishga intiling. Kitoblaringizni ozoda va tartibli saqlang. Kitob sahifalarini avaylab varaqlang, yertilishiga, buklanishiga yo‘l qo‘ymang. Yosh bolalardan ehtiyot qiling. Darsliklar bilan cheklanib qolmasdan badiiy kitoblar ham o‘qing.

*(60 so‘z)*

### 2. Mirzo Ulug‘bek

Bobokalonimiz Mirzo Ulug‘bek ham podshoh, ham olim edilar. U kishi Amir Temurning nevarasi bo‘lganlar.

Mirzo Ulug‘bek 15 yoshidan boshlab, podshohlik qila boshlagan. 40 yillik podshohlik davrida juda ko‘p savob ishlarni amalga oshirgan. Samarqandda osmon sirlarini o‘rgahish uchun rasadxona qurdirganlar. Rasadxonada osmon jismlari kuzatilgan. Samarqand shahridagi ushbu rasadxona bugungi kunda ham saqlanib qolgan. Shuning uchun ham u kishini buyuk munajjim, olim va shoh deyishadi.

*(65 so‘z)*

### 3. Qish

O‘lkamizda dekabr oyida oltin kuz o‘rnini kumush qish fasli egallaydi. Bepoyon dalalarni, bog‘larni, tog‘larni, dov-daraxtlarni oppoq qor qoplaydi. Ona tabiat oq choyshabga o‘ranadi. Hamma yoqda sovuq izg‘irin kezadi.

Qishda yerga sepilgan don urug‘lari qor ostida zararsiz turadi, muzlamaydi. Hozir urug‘lar tinch uyquda. Daraxtlar ham oppoq qorga o‘ranib, rohatlanib uxlamoqda.

Qish faslida, ayniqsa dekabr oyida, juda tez qorong‘i tushadi. Kunduzi juda qisqa, kechasi esa uzun bo‘ladi.

*(66 so‘z)*

#### **4. Vatan**

Inson o'zligini anglagan, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, ulg'aya boradi. Bu ildiz qancha teran bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar yuksak bo'ladi. Albatta, jahon keng, dunyoda mamlakat ko'p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O'zbekistonimiz yakka-yu yagonadir. Bu go'zal yurt, bu muqaddas zamin faqat bizga atalgan. Mana shu ulug' tuyg'u har birimizning dilimizga jo bo'lishi, hayotimizning mazmuniga aylanishi lozim. I.A.Karimov

*(69 so'z)*

#### **5. Alisher Navoiy**

Alisher Navoiy 1441-yilning 9-fevralida Hirot shahrida tug'ilgan. U bolaligidanoq ziyrakligi, o'tkir zehni, she'r o'qish va yodlash qobiliyati bilan ko'pchilikning e'tiborini qozondi. Alisher 10-12 yoshidanoq ilk she'rlari bilan shoir va olimlarni hayratga soldi. U davlat arbobi sifatida mamlakat va xalq faravonligi uchun kurashdi. Maktab, madrasa, shifoxona, kutubxonalar qurdirdi. Ariq va kanallar qazdirdi. Ilm va san'at ahllariga rahnamolik qildi. Alisher Navoiy 1501-yilning 3-yanvarida Hirotda vafot etdi. *(70 so'z)*

#### **6. Shaxsiy gigiyena**

Odamning sog'ligi badani va terisining tozaligiga bog'liq. Shuning uchun haftasiga bir-ikki marta sovunlab cho'milish, ich kiyim va choyshablarni tez-tez alishtirib turish kerak. Maktabdan qaytib kelgandan so'ng maktab kiyimlarini yechish va uni tozalab qo'yish kerak. Tishlarni ham har kuni ertalab va kechqurun yuvish lozim.

Yuqimli kasalliklar yuqmasligi uchun ovqatga faqat yuvilgan sabzavotlar va mevalarni ishlatish kerak. Ovqatdan oldin, hojatxonaga borgandan va uy hayvonlari bilan o'ynagandan keyin qo'llarni yuvish kerak.

*(70 so'z)*

## **Xulosa**

Shunday qilib boshlang'ich sinflarda ona tili fanining samaradorligi o'qitish metodini to'g'ri tanlash, ona tili fanining amaliy yo'nalishidan kelib chiqib, ta'lim jarayonida ko'proq o'quvchini o'ylashga, fikrlashga undovchi o'quv topshiriqlarini ishga solish, o'quvchilarda bilish-o'rganish ehtiyojini yuzaga keltiradigan dars shakllaridan foydalanish singarilar bilan bo'g'liq o'quvchini ta'lim jarayonining subyektiga aylantirishda topshiriqlar hal qiluvchi omillardan sanaladi. Ona tilidan tashkil etiladigan topshiriqlar o'quvchini izlanishga ijodiy faoliyat ko'rsatishga o'rganilayotgan til hodisalarning mohiyatini aniqlab qaror va xulosalar chiqarishga undaydi. Topshiriqlar har bir o'quvchiga o'zini nomoyon etish, fikr-mulohazalarni himoya qilish, topshiriqni shavq-u zavq bilan bajarish imkoniyatini beradi. Har bir shaxsda tarbiyalanish zarur bo'lgan ijodiy sifatleri tezkorlik, sergaklik, qat'iyatlilik, bilimdonlik, mustaqillik, ijodkorlik kabilar ko'pincha ta'limiy o'yinlar orqali rivojlantiradi. Topshiriqlar ta'lim tizimini, bilimlarni o'zlashtirish va tez anglash uchun xizmat qiladi.

Xat, yozuv kishi qalbining oynasi, xatiga qarab odamlarning tabiatini, xarakterini ham bilishadi. Chiroyli yoza olmaslik kattta nuqson, lekin tuzatsa bo'ladigan kamchilik. Buning uchun nima qilish kerak? Birinchi galda boshlang'ich sinflarda husnixatga katta e'tibor berilishi lozim. Bolaning yozuvi yuqori sibflarda ham har qanday o'qituvchining nazorati ostida bo'lmog'i, yozma ishlarda topshiriqlarning mazmuni bilan bir qatorda o'quvchilarning yozuviga ham baho qo'yilishi yoki "Chiroyliroq yozib kel" deb o'quvchiga qaytarilib berilishi kerak. Bu borada o'qituvchi diktant turlaridan unumli foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarni to'g'ri va chiroyli yozishlariga erishish o'qituvchidan ham, o'quvchidan ham ko'p mehnat talab etiladigan jarayon bo'lib, bunga erishish uchun o'quvchidan ilmga chanqoqlik va o'z xatiga nisbatan qiziqish, o'qituvchidan esa mukammal bilim, pedagogik mahorat, o'z kasbiga mehr-muhabbat talab etiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. - “O‘zbekiston” nashriyoti, Toshkent-1997.
  2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – “O‘zbekiston” nashriyoti, Toshkent-1997.
  3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch.–T.: Ma’naviyat, 2008-y.
  4. Mirziyoyev Sh.M. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. T., 2017 y.
  5. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va obod, demokratik jamiyatni barchamiz birgalikda barpo etamiz”. “O‘zbekiston” nashriyoti, Toshkent 2016.
  6. Saydahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalarning mohiyati. Xalq ta’limi. T.: 1999-yil.
  7. Tolipov O‘. Pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillari. “Xalq ta’limi”. 5-son, 2013-yil.
  8. G‘afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – “Tafakkur” nashriyoti, Toshkent-2015
  9. G‘afforova T., Shodmonov E. 1-sinf Ona tili darslik. Toshkent - 2018.
  10. G‘afforova T., Nurillayeva Sh., Haydarova O. Boshlang‘ich sinflar uchun ona tili va o‘qishdan didaktik materiallar. –Toshkent, 2012
- <http://www.ziynet.uz> – O‘zbekiston Respublikasi ta’lim portal.

## **Mundarija**

O'quvchilarda yozuvga oid kompetensiyalarni shakllantirish .....	3
O'quvchilarni to'g'ri va chiroyli yozuvga o'rgatishda diktantlardan foydalanish.....	5
Boshlang'ich sinflar uchun lug'at diktant namunalari.....	8
Boshlang'ich sinflar uchun tekshirish diktant namunalari .....	12
Xulosa.....	20
Foydalanilgan adabiyotlar.....	21

## **RABBANAYEVA DILDORA TOLIPOVNA**

### **ONA TILI FANIDAN LUG‘AT VA TEKSHIRISH DIKTANTLARI**

Terishga berildi: \_\_.06.2019 y.

Bosishga ruxsat berildi: \_\_ 06.2019 y.

Ofset bosma qog‘oz. Qog‘oz bichimi 60x84 <sup>1/16</sup>.

«Times» garnituras. Ofset bosma usuli.

2 bosma taboq

Adadi: 25 nusxa.

Buyurtma №\_\_

